

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY- PEDAGOGIK ZARURATI

Narmanov Alisher Xasanovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrası p.f.f.d(PhD), v.b.dotsent.

Annotatsiya: Bo‘lajak o‘qituvchilardan axborotni tanqidiy tahlil qilish, media muhitda mas’uliyatli harakat qilish, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan pedagogik maqsadda oqilona foydalanish, o‘quvchilarda mediasavodxonlik va raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish kabi fikrlar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilardan axborotni tanqidiy tahlil qilishning amaliy hamda nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, mediamadaniyat, mediasavodxonlik, axborot savodxonligi, faktcheking, raqamli xavfsizlik, sun’iy intellekt, mediamatn.

SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED FOR DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS' MEDIA CULTURE IN THE CONDITIONS OF DIGITAL SOCIETY

Narmanov Alisher Khasanovich

Chirchik State Pedagogical University

Department of "Interfaculty Social Sciences" PhD, Acting Associate

Professor

Abstract: The study outlines requirements for future educators, such as the critical analysis of information, responsible behavior in the media environment, the prudent use of artificial intelligence and digital platforms for pedagogical purposes, and the fostering of a culture of media literacy and digital

safety among students. The research findings contribute to strengthening the practical and theoretical foundations of critical information analysis for future teachers.

Key words: digital transformation, media culture, media literacy, information literacy, fact-checking, digital security, artificial intelligence, media text

Dunyoda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimining mazmuni, texnologiyalari va pedagog kasbiy tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, bo'lajak o'qituvchilardan axborotni tanqidiy tahlil qilish, media muhitda mas'uliyatli harakat qilish, sun'iy intellekt va raqamli platformalardan pedagogik maqsadda oqilona foydalanish, o'quvchilarda mediasavodxonlik va raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish kabi yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. UNESCO tomonidan mediasavodxonlik va axborot savodxonligi fuqarolarning raqamli jamiyatda ongli ishtirok etishi, axborotni tanqidiy baholashi va mas'uliyatli mediaxulqni namoyon qilishi uchun muhim ta'limiy yo'nalish sifatida ilgari surilayotgani, OECD tomonidan raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, o'quvchilarning raqamli muhitdagi faoliyati va ta'lim natijalari o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilayotgani, Yevropa Ittifoqi tajribasida esa pedagoglarning raqamli kompetentligi ta'lim sifatini ta'minlovchi muhim kasbiy mezonlardan biri sifatida belgilanayotgani mazkur masalaning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda feyk axborot, manipulyativ mediakontent, kiberxavflar, akademik halollik muammolari va AI vositalaridan mas'uliyatsiz foydalanish holatlarining ortib borishi bo'lajak o'qituvchilarda raqamli mediamadaniyatni rivojlantirishni global pedagogik muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda raqamli mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish, uning pedagogik modeli, metodik ta'minoti va baholash mezonlarini ishlab chiqish dunyo ta'lim amaliyotida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish, mediasavodxonlik va axborot savodxonligini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish, raqamli resurslardan samarali foydalanish, sun'iy intellekt bilan ishlashda axloqiy va tanqidiy yondashuvni shakllantirish kabi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda; jumladan, UNESCO o'qituvchilar uchun AI kompetensiyalari doirasida bilim, ko'nikma va qadriyatlarni aniqlashga e'tibor qaratmoqda. OECD esa raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishda mamlakatlar, maktablar, o'qituvchilar va o'quvchilar amaliyotidagi farqlarni tadqiq etmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda AI savodxonligi, generativ sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish, faktcheking, raqamli xavfsizlik, mediamatnni tanqidiy tahlil qilish va o'qituvchilarni raqamli muhitdagi axborot xavflariga tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamlashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, o'quvchi-yoshlarda axborotni tanqidiy qabul qilish, mediamateriallarni tahlil etish, raqamli xavfsizlik va onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va ochiq axborot muhiti ta'lim jarayoniga faol kirib kelayotgan bir sharoitda bo'lajak o'qituvchining raqamli mediamadaniyati uning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim mezonga aylanmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilishi shart". Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli resurslardan samarali foydalanish, mediamatnni tanqidiy tahlil qilish, axborot xavfsizligiga rioya etish, AI natijalarini mas'uliyat bilan baholash va o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirishga tayyorlash mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida o'qituvchi, talaba va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimini ham o'zgartirmoqda. An'anaviy pedagogik munosabatda o'qituvchi asosiy bilim manbai, talaba esa bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida qaralgan bo'lsa, raqamli muhitda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabat interfaol, hamkorlikka asoslangan va ko'p kanalli muloqot shakliga o'tmoqda. Raqamli transformatsiya ta'lim tizimida o'qituvchi kasbiy faoliyatining mazmuni, funksiyalari va kompetensiyaviy tarkibini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy o'qituvchi endilikda faqat fan mazmunini o'quvchiga yetkazuvchi mutaxassis sifatida emas, balki raqamli ta'lim muhitini tashkil etuvchi, mediakontentni saralovchi, axborot xavflarini oldindan ko'ra oladigan, sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli va axloqiy foydalanishni yo'lga qo'yadigan, o'quvchilarda tanqidiy mediatafakkur va raqamli muloqot madaniyatini shakllantiradigan pedagogik subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarning an'anaviy "fanni bilish — dars o'tish — baholash" doirasidan chiqib, "raqamli resurslar bilan ishlash — mediamatnlarni tahlil qilish — axborot xavfsizligini ta'minlash — sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish — o'quvchining raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish" kabi vazifalar bilan boyiganini ko'rsatadi.

Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi kasbiy faoliyatining yangi mazmuni, avvalo, uning raqamli kompetentligi bilan bog'liq. Raqamli kompetentlik o'qituvchining kompyuter, internet yoki elektron platforma bilan ishlay olishinigina anglatmaydi. U raqamli resurslarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash, ularni dars mazmuniga integratsiya qilish, interaktiv ta'lim muhitini yaratish, onlayn va oflayn ta'limni uyg'unlashtirish, raqamli baholash vositalaridan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini raqamli vositalar orqali qo'llab-quvvatlash kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchidan texnologiyani faqat texnik vosita sifatida emas, balki ta'lim mazmunini boyituvchi, o'quvchi

faolligini oshiruvchi va individual ta'lim trayektoriyasini ta'minlovchi didaktik resurs sifatida qo'llash talab etiladi.

Xulosa o'rnida: Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi o'qituvchi faoliyatiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Generativ sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim platformalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, intellektual repetitorlar, chat-botlar va tahliliy ta'lim platformalari o'qituvchining ishini yengillashtirishi, ta'limni individuallashtirishi va o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 09.10.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020.
3. Tomczyk Ł. Digital competence among pre-service teachers: A global perspective on curriculum change as viewed by experts from 33 countries // Evaluation and Program Planning. – 2024. – Article 102449. – DOI: 10.1016/j.evalprogplan.2024.102449.
4. Köstler V., Wolff M.-S. Promoting Digital Competencies in Pre-Service Teachers: The Impact of Integrative Learning Opportunities // Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, № 3. – Article 337. – DOI: 10.3390/educsci15030337.
5. Gilishtaganova O.M. Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarning ahamiyati // Science Shine. – 2025. – Issue 13(48), Vol.1.